



SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINI TUTGAN O'RNI

Qurbanov Jumanazar Omonovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

“Loyiha boshqaruvi” 23-33 guruhi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini zaruriyati va tutgan o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Sog'liqni saqlash, loyiha, davlat-xususiy sheriklik loyihalari, xizmat.

Bugungi kunga kelib, sog'liqni saqlash sohasiga davlat-xususiy sheriklik loyihalari keng tadbiiq qilinmoqda. Ya'ni, davlat-xususiy sheriklik sohaga innovatsion davolash usullarini joriy etish va klinikalarni texnologik jihozlash tibbiy yordam sifatini oshirishning samarali mexanizmiga aylanmoqda. Bu esa raqamli sog'liqni saqlashni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Hududlarning jadal rivojlanishiga ko'maklashuvchi innovatsiyalarning eng samarali vositalaridan biri davlat-xususiy sheriklik hisoblanadi. Bu mexanizm davlat, biznes va jamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka, ularning sa'y-harakatlarini birlashtirishga va har bir ishtirokchi manfaatlarini hisobga olishga imkon beradi. Uning kelib chiqishiga to'xtalib o'tsak, XX asrning so'nggi o'n yilligida Buyuk Britaniyada davlat-xususiy sheriklik deb ataladigan davlat-xususiy sheriklik shakli paydo bo'ldi. Bu tushuncha davlat mulkini samarali boshqarish uchun xususiy resurslarni jalb qilishning yangi konsepsiyasi sifatida talqin qilinadi. Ushbu mexanizm rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligida qo'llaniladi, lekin uni tartibga soluvchi umume'tirof etilgan qonunchilik modeli mavjud emas [1]. Tibbiyot tashkilotlarini xususiylashtirish ba moliyalashtirish yuzasidan sog'liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy sheriklik mexanizmi quyidagilarga imkon beradi [2]:

- tarmoqqa qo'shimcha mablag'larni jalb qilish va shu orqali davlat va hudud budjetlari xarajatlarini optimallashtirish;



- davlat va xususiy sektor o'rtasida loyihalarni amalga oshirish risklarini taqsimlash;
- texnologik, bilim talab qiluvchi va intellektual resurslardan foydalanish imkoniyatini baholash;
- tibbiyot tashkilotlarini rekonstruksiya qilishga mablag' jalb qilish;
- raqamli tibbiyotni shakllantirish.

Shu bilan birga, raqamli sog'liqni saqlash iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir. Bugungi kunda tibbiyot sohasini raqamlashtirishning asosiy tendensiyalari bo'lib “4P tibbiyoti” (shaxsiylashtirilgan, prognostik, bemorga yo'naltirilgan va profilaktik tibbiyot), tibbiy blokcheyn, teletibbiyot va sun'iy intellekt hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar ushbu tendensiyalarni amalga oshirish borasida mablag'lar jalb qilmoqdalar. Masalan, AQShda investitsiyalar hajmi har yili 1,5 baravar ko'paymoqda. Mamlakatimizda ham davlat organlarining faoliyati sog'liqni saqlashni raqamlashtirishga qaratilgan. Xususan, bu borada teletibbiyot to'g'risidagi qonun qabul qilindi va yagona tibbiy axborot tizimi joriy etildi. Hududlar ham tibbiy yordam ko'rsatish uchun o'zlarining axborot tizimlarini joriy qilmoqdalar. Shifokorlar qabuliga elektron yozilish va fuqarolarning masofaviy tibbiy xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari ortib borayotganiga qaramay, raqamli sog'liqni saqlash tizimini keng joriy etish lozim. Sog'liqni saqlash tizimini raqamli modelga keyingi o'tish uchun samarali vositalardan biriga aylandi.

Darhaqiqat, sog'liqni saqlash sohasi bugungi kunda mintaqaviy miqyosda davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishda yetakchi o'rinni egallaydi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda amalga oshirilayotgan sog'liqni saqlash sohasidagi loyihalar quyidagi guruhga bo'linadi:

- infratuzilma loyihalari;
- autsorsing loyihalari;
- ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotni yaratish bo'yicha yirik loyihalar.

Tahlil natijalariga ko'ra, sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- samarasiz boshqaruv va xususiy lashtirishga muqobil ehtiyojni aniqlash;
- xavflarni muvozanatli taqsimlash hisobiga loyiha samaradorligini oshirish;
- ish va xizmatlar sifatini oshirish;



- innovatsion usullarni qo'llash va infratuzilmani modernizatsiya qilish;
- raqamli sog'liqni saqlash modelini shakllantirish.

Mazkur yo'nalishlar tadbirkorlik subyektlarida sog'liqni saqlashni rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi. Uning asosiy maqsadi aholining yuqori sifatli tibbiy yordam xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdir. Shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy sheriklik raqamli sog'liqni saqlash modelini shakllantirishning samarali mexanizmi, deb hisoblanadi. Bu esa sog'liqni saqlash sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qaraladi. Har bir mintaqada sog'liqni saqlash sohasida mexanizmni muvaffaqiyatli qo'llash barcha tarkibiy tuzilmalarda sog'liqni saqlashni modernizatsiya qilish uchun ushbu vositani keng joriy etish va ishlab chiqishni talab qiladi.

Xulosa shuki, sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalari alohida o'rin tutadi. Ushbu loyiha yangi loyiha turi bo'lib hisoblanadi. Loyihani tashkil etish asosida sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar chuqurlashadi, yangi tibbiyot muassasalari barpo etiladi va sog'liqni saqlash muassasalari o'rtasidagi raqobatbardoshlik aloqalari yanada kengayadi. Hududlarning jadal rivojlanishiga ko'maklashadai va ularda innovatsiyalardan foydalanish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Hamda, tibbiyot tashkilotlarini xususiylashtirish va moliyalashtirish masalalarini amalga oshirishga imkon beradi. Raqamli sog'liqni saqlash tizimidan foydalanish imkoniyatlari kengayadi va masofaviy tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi yanada rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Дячук, Е.А., Салимьянова И.Г., Николаева О.К. Развитие института государственно-частного партнерства в здравоохранении. // Инновационная деятельность, 2016, №1 (36). - с. 40.
2. Роднянский Д.В. Государственно-частное партнерство в сфере здравоохранения: региональный анализ. // Международный журнал прикладных наук и технологий «Integral», №1, 2019. – с. 135.